

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 181 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
<b>Ж.Я.Нуриллаев</b>	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta‘sirini tahlili.....	37
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar .....	44
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta‘minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta‘sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti .....	60
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) .....	72
<b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
<b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
<b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida .....	117
<b>Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich</b>	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati .....	122
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей .....	128
<b>Алимова Райхона Баходировна</b>	
Innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
<b>Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari .....	143
<b>Nematulloev Suxrob Sobirovich</b>	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi .....	148
<b>Kamola Xaydarova</b>	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili .....	153
<b>Mahmudov Nosir Mahmudovich</b>	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli .....	159
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises .....	165
<b>Khalilov Bekzod Akhmatovich</b>	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
<b>Mirtursunova Dinara Anvarovna</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
<b>Tangriyev Izzat Raxmatullayevich</b>	





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda bank xizmatlari, uning rivojlanish evolyusiyasi va uni yanada takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bank xizmatlari bozorida mijozlarning ehtiyojlari va ularni qondirish, shuningdek bank xizmatlari kabi masalalarni tadqiq qilish, rossiyalik olimlar Ye.F.Jukov, O.I.Lavrushin, T.N.Nesterova, A.N.Ivanov, va fransiyalik iqtisodchi olim S. De Kusserlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

O.Lavrushinning fikriga ko'ra, bank - ma'lum mahsulot ishlab chiqaradigan muassasa bo'lib, moddiy ishlab chiqarish sohasidan farq qilib pul, to'lov vositalari ko'rinishidagi maxsus tovarlarni ishlab chiqaradi. Ushbu mahsulotlarga qo'shimcha ravishda banklar asosan pul mazmunidagi xizmatlarni taqdim etadi[3].

Mazkur iqtisodchi olimning fikricha, bank shaklining o'zgarishi bir qancha asosiy tendensiyalar yordamida amalga oshadi: xizmatlar soni o'sishi, raqobatning o'sishi, deregulyasiya, moliyalashtirish narxining o'sishi, foiz stavkalariga o'ta sezuvchan fondlar, texnologik revolyusiya, konsolidatsiya va geografik ekspansiya, bank ishining globalizatsiyasi, bankrotlik xatarining o'sishi va davlat tomonidan depozitlarni sug'urtalash tizimining kuchsizlanishi.

O.Aliqoriyev o'z tadqiqotlarida bank xizmatlari, bank operatsiyalari va bank mahsulotlari tushunchalarini tadqiq etadi va bu tushunchalarning har biriga ta'riflab o'zaro bog'liqligini va bir-birini to'ldirib turishini ko'rsatib beradi:

Bank xizmati bu- mijozlarga taqdim etiladigan bank operatsiyalarining optimal bajarilishiga ko'maklashuvchi bank faoliyatining ko'rinishidir.

Bank operatsiyasi bu- pul mablag'larining harakatini ko'zda tutuvchi hamda muayan iqtisodiy natijaga erishishga qaratilgan bankning o'zaro bog'liq faoliyati majmuasidir.

Bank mahsuloti bu-moliya bozorida oldi sotdi ob'yekti hisoblangan bank operatsiyasining moddiy shaklidir[4].

A.Mirsoatovning fikricha bank sohasida "yangi bank xizmatlari va mahsulotlari" kabi tushunchalarni ajrata olish muhim bo'lib, ular huquqiy jihatdan "bank operatsiyalari" yoki "bitimlari" kabi tushunchalarga bog'langan. Avtonom tarzda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan bank mahsulotidan farqli o'laroq, bank xizmatlari bir vaqtning o'zida tugallanmagan xarakterga ega bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha harakatlar to'plamini ifoda etadi[5].

Fikrimizcha, bank xizmatlari tugallangan mazmunga ega bo'lgan qo'shimcha harakatlar natijasi bo'lishi ham mumkin. Masalan, onlayn kredit xizmati. Onlayn kredit xizmati tugallangan mazmunga ega bo'lgan harakatlar natijasidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksionalash, analiz, sintez, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Banklar mijozlariga masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishi zamonaviy bank tizimi taraqqiyotining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va uni rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir etadi. Masofaviy bank xizmatlarini joriy etishda bu xizmatlarga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish zarur. Bu ta'sir qiluvchi omillarni ikkiga, ya'ni ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin.

Masofaviy bank xizmatlarini joriy etishga ta'sir qiluvchi ichki omillarga quyidagilar kiradi:

Birinchiidan, ichki omillarga masofaviy bank xizmatlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan omillarni olishimiz mumkin. Ya'ni har bir masofaviy bank xizmatlarini joriy qilishimizda birorbir yangi texnologiyalarning imkoniyatlarni bank tizimiga joriy qilish yoki uning imkoniyatlarini bankda qo'llab ko'rish orqali amalga oshiriladi. So'ngra bu texnologiyalar bilan amalga oshiriladigan tizim foydalanuvchilar uchun sodda bo'lishi, ya'ni moliyaviy madaniyati yuqori bo'lmagan va texnologik bilimi kamroq bo'lgan aholi ham foydalana olishi mumkin bo'lgan darajada yaratilishi lozim. Bundan tashqari, tizim yaratuvchilari tomonidan foydalanuvchilarning bu tizimga bo'lgan ishonishi uchun ularning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak;

Ikkinchiidan, masofaviy bank xizmatlarini ommalashtirish uchun bankning marketing siyosatini oqilona olib borish talab etiladi. Unga ko'ra masofaviy bank xizmat turlari va ularning imkoniyatlarini bank mijozlari va aholiga yetakazish uchun seminar treninglar o'tkazish orqali bu xizmatlar to'g'risida foydalanuvchilarda ijobiy taassurot uyg'otish muhimdir.

Uchinchiidan, tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari o'z xizmatlarini takomillashtirib bormoqdalar, xususan, raqobat sharoitida tijorat banklari mijozlarini saqlab qolish va yangi mijozlarni jalb qilishda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish narxini optimallashtirishi va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashi talab etiladi.



To'rtinchidan, zamonaviy bank texnologiyalaridan va ularga asoslangan masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan samarali foydalana olishni ta'minlash uchun bank xodimlari va ularning malakalarini oshirish talab etiladi. Bankning o'quv markazi tomonidan muntazam o'quv va amaliy seminarlar tashkil etib borish kerak.

Beshichidan, masofaviy bank xizmatlarini tashkil etish va undagi barcha holatlarning huquqiy jihatlarni o'zida aks ettirgan Markaziy bank yo'riqnomalari va tijorat banklari ichki nizom va tartiblari, ya'ni me'yoriy-huquqiy asosi yaratilganligi foydalanuvchilar o'rtasida bu tizimga nisbatan ishonch hissini oshiradi.

Masofaviy bank xizmatlari rivojlantirilishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

Birinchiidan, masofaviy bank xizmatlarida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda operasion tizim bilan bog'liq salbiy holatlar va foydalanuvchining noto'g'ri amalga oshirgan operatsiyasi natijasida operasion riskning yuz berishi, masofaviy bank xizmat tizimlarida muammoli holatlarda moliyaviy yo'qotishlar, foydalanuvchilarning ehtiyotkorsizlik bilan qilgan xatolari va boshqa holatlardagi moliyaviy yo'qotishlar natijasida moliyaviy riskning vujudga kelishi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari elektron aloqa kanallari orqali o'tuvchi moliyaviy axborotlarning havfsizlik riski fuqarolarning banklarga nisbatan ishonchi yetarli darajada emasligi, ya'ni haligacha fuqarolarning ko'pchilik qismi o'z jamg'armalarini banklarda emas, balki ko'chmas mulk yoki valyuta ko'rinishida "yostiq ostida" saqlashayotgani sir emas.

Ikkinchiidan, odamlarning masofaviy bank xizmatlari to'g'risida xabardorligi, ya'ni masofaviy bank xizmatlari haqida reklamalar, banklar saytlari, yaqinlari yoki tanishlaridan eshitish orqali xabardor bo'ladi. Ayniqsa, og'zaki nutq orqali virtual muhitda bepul muloqotda masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi so'zlar yoki yaqinlari tomonidan yetkazilishi iste'molchilarga reklama qilishning ta'siridan ko'ra ta'sirchanroq ekanligi tan olindi.

Uchinchiidan, masofaviy bank xizmatlarini muayyan dastur tizimidan foydalanib, foydali tomonlarini qabul qilish orqali foydalanuvchi o'z ishining samaradorligini oshirishiga imkon beradi. Umuman olganda, mijozlar banklar tomonidan taqdim etilgan masofaviy bank xizmatlarining ko'plab foydali tomonlarini tushunib, yangi texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanishga ijobiy munosabatda bo'lishadi. shunday qilib, masofaviy bank xizmatlari bank sohasida ta'sirchan naf keltiradigan konstruksiya sifatida foydalanilishini e'tirof etish mumkin.

To'rtinchidan, banklar mijozlarining soni oshishi va mijozlari hududiy chegarasining kengayishi natijasida banklar filiallari sonini oshirish ko'p xarajatlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun mijozlariga zamonaviy moliyaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatishni talab etadi hamda ortiqcha kuch va xarajatsiz mijozlar soni va hududiy chegarasini oshirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Beshinchidan, so'nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda internetning moliya bozorida kanal sifatida ishlatish, sotish va mijozlarga xizmat qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarida mijozlarning tranzaksiyalari uchun turli tranzaksion modellar va yangi bank xizmatlari orqali qulayliklar yaratilmoqda, pirovardida bank mijozlari vaqti tejaladi, xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi hamda bank xizmatlarining tezligi, shaffofligi, mobilligi oshishi tobora yaxshilanadi. Hukumatning bu kabi bank xizmatlariga nisbatan davlat siyosati darajasida e'tibor qaratishi albatta kelgusida o'z ijobiy natijasini beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF – 60-son<sup>1</sup> Farmonida hamda 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston –2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF – 6079-son Farmonlarida optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligini 170 ming km ga yetkazish[1], 2022-yil yakuniga qadar har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo'lmagan ma'lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bilan ta'minlash[2] o'z ifodasini topgan bo'lsada, biroq innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud:

masofaviy bank xizmatlari va internet bankingdan foydalanayotganda mijozlarning tizimdan foydalanishda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi;

kommunikatsion infrastrukturani viloyatlarning chekka hududlarida yaxshi rivojlanmaganligi;

xalqaro bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalardan – Big data va Data basing texnologiyalari respublikamiz banklari amaliyotiga joriy yetilmaganligi;

bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'لامي va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimining shakllantirilmaganligi;

bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini tartibga soluvchi qonunchilik asosining mavjud emasligi. Bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini tartibga soluvchi qonunchilik asosi bo'lmasa, davlat Markaziy bank orqali o'zining nazorat funksiyasini to'liq amalga oshira olmaydi.

2023-yilning iyul oyi holatiga ko'ra, O'zbekistonda internet tezligi o'tgan yilga nisbatan tushgan.

Xususan, Speedtest Global Index tahlilining asosiy mezonlari mobil va keng polosali internet tarmoqlari uchun yuklab olish va yuklash tezligi hisoblanadi. Speedtest ma'lumotlariga ko'ra, mobil internet tezligi bo'yicha mamlakatlar reytingida O'zbekiston 5 pog'onaga pastladi va 112-o'rinni egallab turibdi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



Mamlakatimizda o'rtacha yuklash tezligi -20,33 Mbit/s. Qo'shni mamlakatlar bilan taqqoslansa: Qozog'iston 64-o'ringa (33,91 Mbit/s), Qirg'iziston 84-o'ringa (26,92 Mbit/s), Tojikiston 137-o'ringa (9,73 Mbit/s), Turkmaniston bo'yicha ma'lumot yo'q. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dunyodagi eng tez mobil internet Birlashgan Arab Amirliklarida (205,77 Mbit/s) hisoblanadi. Ikkinchi o'ringa Qatar (186,35 Mbit/s). Kuvayt kuchli uchlikni yakunlaydi (160,87 Mbit/s) (1–2-jadvallar).

1-jadval. Dunyoda mobil internet tezligi bo'yicha yetakchi davlatlar va O'zbekiston reytingi[6].

N	Country	Mbps
1-	BAA	205.77
2-	Qatar	186.35
3-	Quvayt	160.87
4 <sup>+4</sup>	Urugvay	149.08
5 <sup>+1</sup>	Janubiy Koreya	140.49
6 <sup>-2</sup>	Norvegiya	122.72
7 <sup>-2</sup>	Bruney	120.84
8-	Islandiya	109.28
9-	Niderlandiya	106.27
10 <sup>-3</sup>	Daniya	101.19
112 <sup>-5</sup>	O'zbekiston	20.33

2-jadval. Dunyoda optik tolali internet tezligi bo'yicha yetakchi davlatlar va O'zbekiston reytingi[6].

N	Country	Mbps
1-	Singapur	247.44
2+2	Hongkong	242.99
3-	Chili	240.34
4-2	BAA	238.28
5+1	Tailand	211.28
6+1	AQSH	207.32
7-2	Xitoy	193.66
8-	Danich	192.68
9-	Ispaniya	178.94
10+13	Tayvan	177.43
87-2	O'zbekiston	51.6

Internetga keng polosali ulanish (simli internet) bilan bog'liq vaziyat biroz yaxshiroq bo'lib, O'zbekiston jahon reytingida 87-o'rinni egalladi. Mamlakatda o'rtacha yuklash tezligi - 51,61 Mbit/s. Qo'shni mamlakatlar bilan taqqoslansa: Qirg'iziston 86-o'ringa (51,95 Mbit/s), Qozog'iston 95-o'ringa (46,33 Mbit/s), Tojikiston 130-o'ringa (22,01 Mbit/s), Turkmaniston 180-o'ringa (4,06 Mbit/s). Tadqiqot natijalariga ko'ra, dunyodagi eng tez keng polosali internet Singapur (247,44 Mbit/s), Hongkong (242,99 Mbit/s) va Chilida (240,34 Mbit/s) qayd etilgan (1-rasm).

Жахон Минтакалари	Аҳоли сони (2022 йил якуни)	Аҳоли сони Жамига нисбатан % да	Интернет фойдаланувчилари 01.01.2022 й	Фойдаланувчилар жамига нисбатан % да	Ўсиш 2000-2023	Жамига нисбатан ўсиш
Африка	1 394 588 547	17.6 %	601,940,784	43.2 %	13,23%	11.2 %
Осиё	4 352 169 960	54.9 %	2,916,890,209	67.0 %	2,45%	54.2 %
Европа	837 472 045	10.6 %	747,214,734	89.2 %	611%	13.9 %
Лотин Америкаси/Кариб.	664 099 841	8.4 %	534,526,057	80.5 %	2,86%	9.9 %
Шимолий Америка	372 555 585	4.7 %	347,916,694	93.4 %	222%	6.5 %
Яқин Шарқ	268 302 801	3.4 %	206,760,743	77.1 %	6,19%	3.8 %
Оқяния / Австралия	43 602 955	0.5 %	30,549,185	70.1 %	301%	0.6 %
Жами	7 932 791 734	100.0 %	5,385,798,406	67.9 %	1,39%	100.0 %

1-rasm. Dunyo bo'yicha aholining internetdan fodaluvchilari soni (2023-yil 30-iyun holatiga ) [7].

Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishga sabab bo'luvchi omillardan biri bu internet tarmog'idan foydalanuvchilarning soni oshib borishi hisoblanadi. Xalqaro telekommunikatsiya jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyo aholisining 67,9%i internetdan foydalanmoqda, ularning soni hozirgi kunda 5,4 milliarddan oshganligini ko'rishimiz mumkin (1rasm). Hisobkitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, internet foydalanuvchilari soni 2023-yilda 2000-yilga nisbatan 1,4 foizga oshgan.

Dunyo mintaqalari kesimida qaraydigan bo'lsak, aholisi eng ko'p internetdan foydalanuvchi mintaqa shimoliy Amerika bo'lib, bu mintaqada aholining 93,4 foizi internetdan faol foydalansa, Yevropada 89,2 foiz, Okeaniya va Avstraliyada 70,1 foiz, Lotin Amerikasi va Karib dengizi davlatlarida 80,5 foiz, Yaqin sharq davlatlarida 77,1 foiz va Osiyo davlat larida 67,0 foiz aholi internetdan foyda lanadi. Internet eng kam ommalashgan mintaqa Afrika



davlatlari bo'lib, aholining 43,2 foizigina bu xizmatdan foydalanadi.

O'zbekiston aholisining internet xizmatidan foydalanuvchilari soni 31 milliondan ortdi. Shundan 31 million internet foydalanuvchilarining 29,5 milioni mobil internetdan foydalanadi. Shuningdek, so'nggi ikki yilda 22 300 ta qo'shimcha tayanch stansiyasi o'rnatilib ularning umumiy soni 54,0 mingtaga yetkazilgan.

Respublika bo'yicha mobil aloqa qamrovi darajasi 99 foizga, keng polosali mobil Internet qamrovi 98 foizga yetkazilgan[8].

Xususan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni qariyb 32 million nafarni tashkil etgan. Shundan aholi ixtiyorida bo'lgan mobil aloqa vositalari soni 27 mln donani tashkil etgan. Mobil aloqa bilan ta'minlanganlik ko'rsatgichi har 100 kishiga 75 birlikni tashkil etgan[9].

O'zbekistonda mobil aloqa vositalari soni yildan yilga oshib bormoqda. Xususan, so'nggi yillarda har 100 kishiga to'g'ri keladigan abonentlar soni (1 yanvar holatiga):

- 2019-yil - 65 ta;
- 2020-yil - 69 ta;
- 2021-yil - 71 ta;
- 2022-yil - 73 ta;
- 2023-yil - 75 ta.

Umumjahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoda har 100 nafar aholi soniga nisbatan eng ko'p mobil aloqa vositalari qayd etilgan davlatlar orasida quyidagilar bor: Makao - 430 ta, Gonkongda - 291 ta, Seyshellda - 186 ta, BAA da - 185 ta, Tailandda - 166 ta, Rossiyada - 163 ta, Yaponiyada - 154 ta, Germaniya - 126 ta, AQSH -106 ta va boshqalar.

O'zbekistonda mobil aloqa vositalari soni yildan yilga oshishi barobarida bank masofaviy xizmatlar tizimidan foydalanuvchilar soni ham oshib bormoqda.

Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi va masofaviy xizmatlarning qulay tomonlarini ko'rsatib berish yo'li bilan ushbu bo'lajak mijozlarni bankka jalb qilish faqat ushbu bankning xattiharakatlariga bog'liq, xolos. chunki o'z mablag'larini bankda saqlagan jismoniy shaxs masofaviy bank xizmatlari orqali nafaqat o'z hisob raqami to'g'risidagi axborotlarni olishi, balki mobil aloqa, internet, televideniye, kommunal xizmatlar va shu kabi ko'plab xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirishi mumkin.

Yuqoridagi masofaviy bank xizmatlarining joriy etishga ta'sir etuvchi omillardan tashqari yana bir qancha muammoli holatlarni bartaraf etish lozim.

Birinchidan, mahalliy aholi banklarda o'z operatsiyalarini amalga oshirganda ko'proq bank xodimlari bilan to'g'ridanto'g'ri muloqotni afzal ko'rishadi va amalga oshirilgan har bir operatsiya bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni olishga odatlanib qolishgan. Bunday holat aholining mentalitetini o'zgartirish uchun aholiga masofaviy bank xizmatlarining imko niyatlari va xavfsizligi borasidagi tushuntirish ishlarini olib borishni talab etadi.

Ikkinchidan, ko'plab insonlar yangi masofaviy bank xizmatlari bo'yicha tushunchalarining kamligi sababli yangi zamonaviy texnologiya va tizimdan birinchi bor foydalanib ko'rishda cho'chishmoqda, chunki har bir yangi dasturiy texnologiyalar dastavval foydalanishda bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. shuningdek, banklar doimiy ravishda o'z dasturiy tizimlarida xizmat turlarini takomillashtirib boradilar.

Uchinchidan, Respublikamizning chekka tumanlarida elektr energiyasining teztez o'chib turishi va buning natijasida mijozlarga vaqtida aloqa xizmati va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatib bo'lmaydi. Bunday joylarda internet tezligi juda past ekanligi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishda har xil tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu hududlarda bank mijozlari hali ham o'z bank amaliyotini to'lig'icha bankda amalga oshirmoqda. shunday ekan,. banklar ushbu hududlarda ham masofaviy bank xizmatlarini joriy etishga e'tibor qaratishi lozim.

To'rtinchidan, tijorat banklari uchun zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta'minotlarni sotib olish va o'rnatish narxining biroz qimmatligi uchun banklar smartfon va kompyuterlarga asoslangan o'zlarining maxsus dasturlarini joriy qilishlari masofaviy bank xizmatlarida yangi imkoniyatlar yaratish, xarajatlarni tejash imkonini beradi. Bu banklarning axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislari va dasturchilariga katta mas'uliyat yuklaydi yoki mahalliy boshqa mutaxassislar ko'magini talab etadi.

Beshinchidan, masofaviy bank xizmatlarini zamonaviy darajaga olib chiqish uchun aloqa va internet kun davomida 24 soat ishlasayu, masofaviy bank xizmatlari orqali mijozlar to'lovlarni o'tkazishda operasion kunning yopilishiga qadar foydalanishi mumkin. Agar mijozlar turli banklar mijozlari bo'lsa, to'lovlarni faqatgina joriy kunda soat 17-00 ga qadar amalga oshira oladi. Ya'ni masofaviy bank xizmatlari ham ana'anaviy xizmatlar kabi Markaziy bankning Axborotlashtirish Bosh markazi tomonidan belgilangan vaqtga qadar foydalaniladi.

shuning uchun aloqa va internetning kun davomida 24 soat ishlashini inobatga olib, banklarda alohida platforma yaratib, operasion kun bo'lmagan vaqtda ham avtomatik ravishda masofaviy bank xizmatlarida to'lov amaliyotlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim. Bu ayniqsa iqtisodiyot raqamlashib, to'lov



tizimi yildanyilga tezlashib va bank mijozlari soni ortib borayotgan bir paytda amalga oshirilishi talab etiladigan muhim vazifalardan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan xarajati nisbatan kam bo'lgan elektron raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy xizmatlarni joriy qilishni rag'batlantirish mexanizmini yaratish, respublikamiz bo'ylab barcha bank filiallarida 24/7 rejimidagi smartofislarni ochish hamda bank kartalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi jihozlar (to'lov terminali, infokiosk va bankomatlar) sonini keskin oshirish orqali bank mijozlari va mamlakatimiz aholisi uchun qulay xizmatlarni taklif etish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-sonli Farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-sonli Farmoni.
3. Lavrushina.O.I Bankovskoye delo. Ekspres-kurs: uchebnoye posobiye. 2016. 12 s.
4. Aliqoriyev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. Dis. i.f.n., - T.: BMA, - 2011. – 28 b.
5. Mirsoatov.A.K. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida innovasion bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtoreferat. 2021y. 13-b.
6. <https://www.speedtest.net/global-index>.
7. <https://www.internetworldstats.com/stats.htm>.
8. <https://uz/news/uzbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni>.
9. [https://t.me/statistika\\_rasmiy](https://t.me/statistika_rasmiy).
10. <https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem>.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---